

TARJIMAI HOL

<https://www.linkedin.com/in/info-diyorbek/>

<https://www.facebook.com/info.diyorbek/>

Ismim Diyorbek Toshniyozov, 27 yoshdaman. Germaniya Federativ Respublikasining Saxony shtatining Leipzig shahrida yashayman. Bu yerga DAAD (Deutscher Akademischer Austauschdienst) tashkilotining barcha yo'nalishlar bo'yicha magistratura dasturi stipendiyasi orqali Potsdam Universitetida Geologiya fakultetida (master in Geoscience) tahsil olish uchun keldim. Hozirgi kunda Leipzig Universitetining nemis tilini o'qitish Institutida nemis tilimni yanada yaxshilash uchun imtiyozli holatda DAAD dasturi ko'magida o'rganib kelayapman.

Men Samarqand viloyati, Narpay tumanining hozirgi Ipak yo'li mahallasida yozning iliq kunlaridan birida o'rta hol oilada to'gilganman. O'rta maktabdagi tahsilim mobaynida tabiiy fanlar va axborot texnologiyalarga bo'lgan qiziqishim borligini sezdim va ota-onamlardan Toshkent shahriga borib, ingliz tiliga ixtisoslashgan biron litseyda o'qishimni davom ettirishga ro'xsat oldim. Toshkent shahridagi Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatikasi Universiteti (JIDU) qoshidagi akademik litseyida boshlandi Germaniyaga bo'lgan qiziqishlarim. JIDU qoshidagi akademik litseyda 2012-2015 yillar mobaynida horijiy tillar yo'nalishida tahsil oldim. Akademik litseyda ingliz va nemis tillarini o'rganishga ko'proq e'tibor berdim. Akademik litseyni tugallagunga qadar aniq fanlardagi bilimlarimni yaxshilashga ulgurmadim va bir yil davomida Toshkent shahrida o'quv markazda Matematika va Fizika fanlaridan 9 oy mobaynida qo'chimda darslar ga qatnadim va Europa oliy talimiga bo'lgan qiziqishim tufayli 2016 yil Italiya Respublikasining Toshkent shahridagi hamkorlikda tashkil etilgan Turin Politehnika Universitetining Qurilish va Muhandislik yo'nalishining Bakalavr darajasiga yaxshi natijalar bilan qabul qilindim. O'qish mobaynida barcha professor o'qituvchilar bilan chuqurroq aloqa o'rnatishga harakat qildim, juda ko'plab maslahat va yordamlar oldim va bakalavr darajamni tugallab, magistratura da o'qishni emas o'z sohamda ishlab bugungi kundagi muammo va yutuqlarni tushunib yetish uchun bir muddat ishlashga o'qishimning 2 yilida Italiya Respublikadidagi Turin shahridagi Politehnika Universitetida hukumat stipendiya dasturlari orqali tahsilimni davom ettirish imkoniyatlarini bilishimga qaramasdan qaror qilgandim. 2020 yil Bakalavr darajamni tugallash arafasida bu qarorim tug'riligini tushunib yetdim. Pandimeya COVID-19 hamma qatori bizni oilaga ham qattiq tasir qildi. O'qishimni 3 kursidan boshlab o'qishning shartnoma to'lovlarini tulashtirish uchun oilamizda umuman imkoniyat qolmadi. Man va imtohonlar online olinadigan bo'lganligi va Italian professorlar bilan

yaqin munosabatda bo'lganim va oilaviy sharoitimni ular sezganligi sababli 2 yilga yaqin umuman kontrakt pulini to'lalmasdan faqat online imtihonlarga kirib fanlarimdan imtihonlarda norasmiy qatnashdim va kontrakt pulini 2020 yilning oxirgi choragidan boshlab to'lashni boshlaganimdagina topishib chiqqan fanlarimdagi baholar saqlanib qolishiga kelishdik va men ish qidirishim uchun yaxshigina sabablarim boridi. 2020 yil oktyabr oyidan Toshkent shahridagi Tashkent City Lot-6 maydonidagi Xalqaro moliya va biznes markasi loyihasiga Qurilish ishlariga Sifat nazorat muhandisi bo'lib, pudratchi tashkilot Shanghai Construction Group xalqaro firmasiga qabul qilindim. Shanghai Construction Group (SCG) – bu Xitoy Xalq Respublikasining jahonda tajribaga ega qurilish va muhandislik tashkiloti. Men SCG da bir yil mobaynida ishlab, universitetdan olgan barcha bilimlarim amalda qo'llab, juda katta tajriba orttirdim, universitetdan bo'lgan barcha qarzlarimni uzib, diplomimni oldim va hujjatlar bilan bog'liq ishlarda ham qatnashib tajriba orttirishga qaror qildim va 2021 yil oktyabr oyidan Fransiya Respublikasining tajribali Bureau Veritas xalqaro firmasiga quruvchi muhandis bo'lib, endi bu safar buyurtmachi tomondan ishlashga qabul qilindim. Bureau Veritas – Fransiya Respublikasining qurilish ishlarida va muhandislik ishlarida nazorat qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi uzoq yillik tajribali tashkilot Bureau Veritas xalqaro firmasida da men eng tajribali, o'z ishini haqiqatan puxta bajaradigan insonlar bilan tanishdim va men haqiqatan ko'p tajriba oldim va endi men magistraturada o'qishga o'zimni tayyor deb xisoblay boshladim. 2022 yildan boshlab mahalliy aholi muloqat tilini tushuna oladigan davlatlardagi universitetlarda imtiyozli ravishta o'qish mumkin bo'lgan dasturlarni o'rganib chiqa boshladim va Germaniya Rederativ Respublikasi taklif qilayotgan DAAD Deutscher Akademischer Austauschdienstni man uchun eng ma'quli deb topdim va dasturda 2022 yil oktyabr oyida birinchi marta qatnashdim va ollohga shukur rizqimiz borakan hozirda kunda o'qishlarimni yana davom ettirayapman.

DAAD Deutscher Akademischer Austauschdienst dasturi haqidagi ma'lumotlarni DAAD ning rasmiy web sahifalarida topish mumkin barcha qizuvchilarga tavfsiya qilib qolaman.